O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Funduk mag‘zini sotish va uning sifatini nazorat qilish

(DDP-04:2025, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #TNFVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yildagi 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart DDP-04:2025 “Concerning the marketing and commercial quality control of hazelnut kernels” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli.

STANDARTLAR INSTITUTI TRIPVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT) huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi.

BMT standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar, eksport qiluvchilar va boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari standartlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotni quyidagi veb-saytda olish mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html

Funduk mag‘izlariga oid ushbu qayta ko‘rib chiqilgan standart ECE/TRADE/C/WP.7/2010/11 hujjati asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u Ishchi guruhning 2010-yilda bo‘lib o‘tgan oltmish oltinchi sessiyasida qabul qilingan.

Mazkur standart Ishchi guruh tomonidan 2022-yil noyabr oyida qabul qilingan quruq va quritilgan mahsulotlarga oid standartlarning yangilangan tuzilmasiga (ECE/CTCS/WP.7/2022/9) muvofiqlashtirilgan bo‘lib, bu ECE/CTCS/WP.7/GE.2/2025/7 hujjatida o‘z aksini topgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNFVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

FUNDUK MAG‘ZINI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH

КОНТРОЛЬ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЯДРА ЛЕЩИННЫХ ОРЕХОВ

CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF HAZELNUT KERNELS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026

I. Mahsulotning ta’rifi

Ushbu standart Corylus avellana L. va Corylus maxima Mill. navlaridan yetishtirilgan butun finduk mag‘izlariga, shuningdek, ularning to‘g‘ridan-to‘g'ri iste'mol qilish uchun mo‘ljallangan duragaylariga nisbatan qo‘llaniladi.

Ushbu standart sanoatda qayta ishlash yoki oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun mo‘ljallangan finduk mag‘izlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

II. Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi funduk mag‘izlarining tayyorlangandan va qadoqlangandan keyingi sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq standart eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, uning talablariga rioya etilishi uchun mahsulot egasi/sotuvchisi javobgar bo‘ladi. Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday boshqa tarzda namoyish etishi yoki sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoxud realizatsiya qilishi mumkin emas.

A. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar hisobga olingan holda, funduk mag‘izi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Mag‘iz quyidagicha bo‘lishi kerak:

– butun; biroq qobiqning bir qismi yo‘qligi yoki diametri 3 mm dan va chuqurligi 1,5 mm dan kichik bo‘lgan tirnalish/ishqalanish va shilinish izlari nuqson deb hisoblanmaydi;

– butun; chirish yoki buzilish natijasida inson iste’moli uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotga yo‘l qo‘yilmaydi;

– toza; ko‘zga ko‘rinadigan har qanday begona moddalardan deyarli xoli;

– yetarli darajada rivojlangan; o‘ta yassi va burishib qurib qolgan yoki ezilgan mag‘izlarga, shuningdek mag‘izning 50 foizidan ortiq qismini egallagan qurib qolgan, suvsizlangan yoki dag‘allashgan qismlari bo‘lgan mag‘izlarga yo‘l qo‘yilmaydi;

– jami hisobda mag‘iz yuzasining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini egallagan dog‘lardan, rangi o‘zgargan joylardan yoki mag‘izning qolgan qismidan keskin farq qiluvchi yoyilgan dog‘lardan xoli, ta’m yoki hidga ta’sir qilmaydigan, odatda urug‘pallalarning ozgina

---

[1] *Atamalar va nuqsonlar ta’riflari Namunaviy tuzilishning III ilovasida — «Quruq (po‘choqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etiladigan nuqson atamalari va ta’riflari»da keltirilgan: https://unece.org/trade/wp7/DDP-Standards.*

2 Ushbu talab funduqning hidi yoki ta’mi o‘zgarishi bilan bog‘liq ichki yoki tashqi nuqsonlarga nisbatan tatbiq etilmaydi, bunda funduq iste’mol qilish uchun yaroqliligini saqlab qolishi kerak.

STANDARTLARNING RAQAMLI VERSIYASI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT VAZIRLIGI

ajralishi bilan birga kechadigan jigarrang yoki to‘q jigarrang markazli funduk mag‘izlarining mavjudligi nuqson deb hisoblanmaydi[2];

– rivojlanish bosqichidan qat’i nazar, tirik zararkunandalardan xoli;

– zararkunandalar yetkazgan shikastlardan, shu jumladan o‘lik hasharotlar va/yoki kanalar, ularning qoldiqlari yoki chiqindilari mavjudligidan xoli. Biroq qo‘ng‘izsimon hasharotlar tufayli yetkazilgan shikastga, agar mag‘izda diametri 3 mm dan va chuqurligi 3 mm dan oshmaydigan faqat bitta dog‘ mavjud bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi;

– oddiy ko‘zga ko‘rinadigan mog‘or iplaridan xoli;

–Achib qolmagan bo‘lishi;

– Me’yordan ortiq tashqi namlikdan xoli;

– begona hid va/yoki ta’mdan xoli.

Funduk mag‘izlarining holati ularga quyidagilarni ta’minlashi kerak:

– tashish hamda yuklash-tushirish ishlariga bardosh berishni;

– belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishni.

B. Namlik miqdori[3]

Funduk mag‘izlarining namlik miqdori 6,0 foizdan oshmasligi kerak.

C. Tasniflash

«IV Yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga oid qoidalar» bo‘limida yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarga muvofiq funduk mag‘izlari quyidagi sinflarga tasniflanadi: «Ekstra» sinf, I sinf va II sinf.

Yo‘l qo‘yilgan nuqsonlar mahsulotning sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi ko‘rinishi, uning umumiy ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi kerak.

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

O‘lcham bo‘yicha saralash Ekstra sinf va I sinf uchun majburiy hisoblanadi.

O‘lcham mag‘izning ekvatorial kesimining eng katta diametri bo‘yicha aniqlanadi.

Ekstra sinf va I sinf uchun funduq mag‘zining eng kichik o‘lchami 9 mm ni tashkil etadi. Bundan Piccolo turidagi yoki unga tenglashtirilgan turdagi funduq mag‘zi mustasno bo‘lib, ular uchun 6 mm dan 9 mm gacha bo‘lgan diametrga yo‘l qo‘yiladi.

O‘lchamning bir xilligi quyidagi usullardan biri bilan ta’minlanadi:

-o‘lchamlar farqi 3 mm dan oshmaydigan diapazon bo‘yicha yoki

- elash orqali, ya’ni mag‘izning minimal yoki maksimal diametrini belgilash yo‘li bilan.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Realizatsiyaning barcha bosqichlarida har bir to‘pda ko‘rsatilgan sinfning minimal talablariga javob bermaydigan mahsulot uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.

[3] Namlik miqdori «Standart tuzilmasi — quritilgan mahsulotlarda namlik miqdorini aniqlash» hujjatining I ilovasida keltirilgan usullardan biri bo‘yicha aniqlanadi.

Nizo kelib chiqqan hollarda laboratoriyaning etalon usuli qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNFVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Sifat va o‘lcham bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

Ruxsat etilgan chetlanishlar	Ruxsat etilgan chetlanishlar: nuqsonli funduk mag‘izlarining soni yoki og‘irligi bo‘yicha foizi		
	«Ekstra» sinf	I sinf	II sinf
a) Minimal talablarga javob bermaydigan funduk mag‘izlari uchun chetlanishlar			
Jami	5	14	18
shundan ko‘pi bilan:			
yetarli darajada rivojlanmagan, burishib qurib qolgan yoki ezilgan	2	4	8
mog‘orlagan	0,5	1,5	2,5
Achigan yoki zararkunandalardan shikastlangan, chirigan yoki buzilgan	2	4	6
shundan achigani ko‘plari bilan	1	2	3
teshiklari dumaloq 5 mm li elakdan o‘tmaydigan shikastlangan mag‘izlar va bo‘laklar	3	8	10
teshiklari dumaloq 5 mm li elakdan o‘tadigan bo‘laklar	0,5	1	2
tirik zararkunandalar	0	0	0
b) O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar[a]			
Ko‘rsatilgan o‘lchamga mos kelmaydigan mahsulot uchun, jami:			
dumaloq shakldagilar uchun	10	10	10
uchli va cho‘zinchoq shakldagilar uchun	15	15	15
1 mm lik oraliqlar bilan kalibrlangan bo‘lsa:			
dumaloq shakldagilar uchun	15	15	15
uchli va cho‘zinchoq shakldagilar uchun	20	20	20
c) Boshqa nuqsonlar uchun ruxsat etilgan chetlanishlar			
Organik kelib chiqishga ega begona aralashmalar, masalan, po‘choq qoldiqlari, po‘choq bo‘laklari, barglar, chang, begona moddalar (massasi bo‘yicha)	0,25	0,25	0,25
Qo‘shaloq mag‘izlar	2	5	8
Ko‘rsatilgan navdan yoki tijorat turidan boshqa nav yoki tijorat turlariga mansub funduk mag‘izlari	10	10	10

[a] Belgilangan o‘lchamdan 0,2 mm yuqori yoki past bo‘lgan funduklarning mavjudligi nuqson deb hisoblanmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNFVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V. Taqdim etishga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning[5] tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, hosil yiliga, o‘lchamga hamda nav yoki tijorat turiga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) mansub funduk mag‘izlaridan iborat bo‘lishi lozim.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun tarkibni ifodalovchi bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Funduq mag‘zi mahsulotning to‘g‘ri himoya qiladigan tarzda qadoqlangan bo‘lishi kerak.

Qadoq ichida qo‘llaniladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo belgilari tushirilgan qog‘oz, yorliq va boshqa materiallardan foydalanishga, bosma yoki tamg‘alash ishlari zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelimdan foydalangan holda bajarilgan taqdirda, yo‘l qo‘yiladi.

Qadoqlar IV-bo‘lim «Ruxsat etilgan chetlanishlarga doir talablar» da keltirilgan ruxsat etilgan chetlanishlar jadvaliga muvofiq har qanday begona aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

C. Taqdim etilish shakli

Funduq mag‘zi qoplarda yoki qattiq idishlarda qadoqlangan holda taqdim etilishi kerak.

Har bir transport qadog‘i ichidagi barcha iste’mol qadoqlari bir xil massaga ega bo‘lishi hamda bir xil tovar navi, navi yoki tijorat turiga mansub funduq mag‘zini o‘z ichiga olishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda quyidagi ma’lumotlar bir tomonga guruhlangan harflar bilan, o‘qiladigan va o‘chmaydigan tarzda hamda tashqaridan ko‘rinadigan qilib yozilishi kerak.

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi:

Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat) yoki, agar bunday tizimni qo‘llovchi mamlakat BMT YeIK Kod belgilari reyestrida qayd etilgan bo‘lsa, milliy organ tomonidan rasmiy tan olingan kod belgisi[5] .

B. Mahsulot tavsifi

– «Funduk mag‘zi»;
– «Ekstra» sinf va I sinf uchun — nav va/yoki tijorat turining nomi;
– zarur hollarda — «*Piccolo*» turi yoki unga teng keluvchi nom.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

– Kelib chiqish mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, mahsulot yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

---

[4] Iste’molchiga bevosita sotish uchun oldindan qadoqlangan mahsulotning iste’mol qadoqlari mazkur markirovka talablari tatbiq etilmaydi, biroq ular milliy qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mazkur markirovka talablarida nazarda tutilgan ma’lumotlar bunday iste’mol qadoqlari joylangan transport qadog‘ida har qanday holatda ham ko‘rsatilishi lozim.

[5] Ayrim mamlakatlarning qonunchiligida mahsulot qadoqlovchisi va uning manzilini aniq ko‘rsatish majburiy hisoblanadi. Biroq kodli belgi qo‘llanilganda, kodning bevosita yonida «qadoqlovchi va (yoki) jo‘natuvchi» (yoki shunga teng qisqartma) degan yozuv keltirilishi kerak. Agar kodni tan olgan mamlakat mahsulotning kelib chiqqan mamlakati bo‘lmasa, kodli belgidan oldin ushbu mamlakatning ISO 3166 Alpha-2 standartiga muvofiq ikki harfli mamlakat kodi ko‘rsatilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNFVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

D. Tijorat ko‘rsatkichlari

- sinf;
- o‘lcham (o‘lchami bo‘lsa);
- eng kichik va eng katta diametr ko‘rsatilishi orqali; yoki
- eng kichik diametrdan keyin «va undan katta» yoki «va +» belgisi ko‘rsatilishi orqali;
- eng katta diametrdan keyin «va undan kichik» yoki «va –» belgisi ko‘rsatilishi orqali;
- o‘lcham nomi (ixtiyoriy);
- hosil yili (ixtiyoriy) — eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq;
- «Yaroqlilik muddati» yozuvi va sana (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Ushbu standart dastlab 1970-yilda BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining po‘chog‘idan ajratilgan funduq mag‘zi bo‘yicha standarti sifatida qabul qilingan.

Standart so‘nggi marta 2010-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNFVMV5G4U - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI